QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SHESHIMI

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 27 - noyabr 297-13-185-Q/23 Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddasi, xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tuman Kengashi sessiyasining 2023 yil 2 noyabr kungi VI-63-115-13-185-K/23-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ga muvofiq:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2023-yil 12-oktabr kungi 01-07/19-10/602-sonli xati va xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tuman Kengashi sessiyasining 2023 yil 2 noyabr kungi VI-63-115-13-185-K/23-sonli qarori topshiriqlari ijro uchun rahbarlikga olinsin.

2. Quyidagilar:

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-sonli qarori hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifida va saylovoldi dasturda belgilangan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali tashkil etish maqsadida keksa avlod vakillarining respublikamiz bo‘ylab sayohatlarini tashkil etish yuzasidan reja-grafik tasdiqlanganligi:

-tasdiqlangan reja-grafikga asosan tumanimiz keksa avlod vakillarining Buxoro viloyatiga sayohatini tashkil qilish rejalashtirilganligi hamda sayohatni tashkil etish xarajatlariga dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra jami 55.0 mln. (ellik besh million) so‘m mablag‘ zarurligi aniqlanganligini inobatga olib, ushbu maqsadlarda zarur bo‘lgan mablag‘larni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi tuman hokimining o‘rinbosarlari (Kurbanov, Mamutov)ning taklifi ma’qullansin.

3. Qo‘ng‘irot tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Sayipnazarov), tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (F.Djumaniyazov) bilan birgalikda Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘lar ajratilishini, tuman hokimligining bosh hisobchisi (S.Kaldibayev) ajratilgan mablag‘ni maqsadli sarflanishini nazoratga olish topshirilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Sayipnazarov), tuman hokimligining bosh hisobchisi (S.Kaldibayev) bilan birgalikda yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlar uchun zarur mablag‘larni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan tegishli tartibda tuzilgan shartnomalar asosida o‘tkazib berilishini ta’minlasin. Bunda tovar (ish, xizmat)lar boshlang‘ich narxlarining to‘g‘ri shakllanishiga tuman hokimligining bosh hisobchisi (S.Kaldibayev) shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

5. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Kurbanov va tuman hokimining o‘rinbosari A.Mamutov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **B.Madaminov**